

**TA'LIM –TARBIYA TIZIMIDA USTOZ SHOGIRD MUNOSABATLARINI
RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI**

Muazzamxon Najmuddinova

Namangan Davlat Universiteti Ta'lim

Tarbiya nazaryasi va Metodikasi (Boshlang'ich Ta'lim)

mutaxassisligi 2-kurs magstranti

Annotatsiya: ushbu maqolada sharq didaktikasida insonning komil shaxs sifatida tarbiyalanishida ustoz shogird an'analari ta'siri haqida mulohazalar yuritilgan Kalit so'zlar: an'ana, sharq didaktikasida ta'lim tarbiya, didaktik manbaalar, tarixiy shaxslarimiz hayotida ustoz shogird an'analari

An'ana tarixiy xarakterga ega. Insoniyat qanchalik qadimiy bo'lsa uning an'analari ham shunchalik qadimiyidir. Shuningdek ustoz-shogird an'analari ham qadimdan mavjud.

Ustoz-shogird an'analari turmush talabidan tarixiy zaruratdan kelib chiqqan. Ustoz-shogird an'analari bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar almashinishiga qaramay uzoq zamonlardan bizga mavjuddir. Bu an'ana davr talabi bilan yangi sharoitda yangicha usullar orqali amalga oshirilsada, biroq maqsad barcha davrda ham bir xil bo'lib, yosh avlodni tizimli kamolotga yetkazishdir. Shuning uchun ham bizga azaldan ustozga aziz inson sifatida qaralgan. Butun mashriq zaminda ustoz-shogirdlik an'anasi chuqur hurmat, izzat-ikrom va o'zgacha oliy maqom qadriyatlar shohsupasining eng to'ridan joy olgan. Unda tarbiyachi va tarbiyalanuvchi so'zlari aynan ishlatilmasada, ularning burch va vazifalari aks etgan. Ustoz-shogird an'analari-yoshlarda kasbiy mahoratini tarbiyalashi, ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini oshirishi, izlanishi, o'z ustida mehnat qilishi, bir so'z bilan aytganda har tomonlama yetuk malakali kadrlarni shakllantirishda o'ziga xos tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi mavjudligi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Ustozning eng buyuk burchi- yurt ravnaqiga o'zining munosib hissasini qo'sha oladigan, aql-idrokli, fahm- farosatli va qobiliyatli shogirdlar tayyorlashdan iborat. Ma'lumki ta'limni tarbiyasiz, rivojlanishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi

Shogirdiga ta'lim va tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etish ustozning g'oyaviy e'tiqodi, kasb mahoratiga, san'at, iste'dodi va madaniyatiga hal qiluvchi darajada bog'liqdir ta'lim jarayonida shaxsni rivojlantirish va tarbiyalashga ta'sir etuvchi ilmiy tasavvur, tushuncha, qonun, nazariya va tamoyillarni shakllantirish nazarda tutiladi. Tarbiya jarayonida e'tiqod axloqiy me'yor, qoida va qadryatlarga e'tibor berish bilan birga, tasavvur, bilim va ko'nikmalar ham shakllantiriladi. Sharq didaktikasida ta'lim-tarbiya berishda asosan o'sha davrning didaktik manbalari Yusuf

Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” , Kaykovusning “Qobusnoma” , Ahmad Yugakiyning “Hibbat ul- haqoyiq “ Sa’diyning “Guliston” Alisher Navoiyning “Mahbub ul –qulub” kabi ta’limiy –axloqiy asarlaridan foydalanilgan. Chunki bu asarlada sharqqa xos bo’lgan insoninig axloqiy, ruhiy kamoloti, oliv darajadagi yuksalish muammosi yetakchi g’oya bo’lgan. Insoniylik insonni ulug’lash g’oyasi ta’lim- tarbiyaga qaratilgan asoslarning asosiy o’zagi sanalgan. Insonparvarlik g’oyasini amalga oshirishning asosiy vositalari sifatida yuksak axloqiy odatlar, insoniy munosabatlar va xislatlarni tarkib toptirishga olib keluvchi ta’lim tarbiyani amalga oshirish muhim masala qilib qo'yilgan.

Sharq didaktikasida "Qur'on va hadis"larni o'rganish va ulardagi ko'rsatmalarni o'zlashtirish bilan birga olib borilgan. Shunga ko'ra "Qur'on va hadis"lardagi pand-nasihatlar, musulmonchilikning muhim xislatlari halollik, saxovat, himmat, mehr-oqibat, ehson, sharm-hayo, ilm izlash, muomala qoidalari, axloq mezonlari shogirdga birinchi navbatda o'rgatib borilgan. Sharq ta’lim- tarbiyasida ilmni targ'ib etish, dastlab xulq-atvor qoidalari islomiy tamoyillarga asoslangan.

Ustoz va shogird haqidagi rivoyatlardan ma'lumki, shogirdlikka qabul qilinadigan bolaning zehni, o'rganayotgan sohaga bo'lgan qiziqishi alohida e'tiborga olingan. Misol uchun Ibn Sino haqidagi ushbu rivoyatda buning guvohi bo'lamiz.

Abu Ali ibn Sinoning qo‘lida ta’lim olish, unga shogird bo‘lish katta sharaf edi. Kunlardan bir kun ikki ota – biri katta boy, ikkinchisi bir kambag‘al o‘z o‘g‘illarini Ibn Sinoga shogirdlikka bermoqchi bo‘lishdi.

Ey ulug‘ tabib, huzuringizga bolalarimizni olib keldik. Tarbiyangizga olib, shogirdlikka qabul qilsangiz. Zora sizga o‘xshab, tabib bo‘lib yetishsalar, – deyishdi. Ibn Sino rozilik bildirib, ularni sinab ko‘rib shogirdlikka olishni aytди. Ibn Sinoning bir odati bor edi. Kim unga shogird tushmoqchi bo‘lsa, oldin sinovdan o‘tkazar, so‘ng tabiblik ilmini o‘rgatar edi.

– Bolalarim, – dedi kelgan yigitlarga qarab, – Tog‘u-toshlar kezing, cho‘lu-biyobonlar oralang-da, har biringiz ming donadan o‘t-giyoh terib kelinglar.

Ibn Sino shunday dedi-da, ularni har birining qo‘liga xalta berdi. Oradan bir necha kun o‘tdi. Bolalarning birinchisi kelib, yiqqan giyohlarni Ibn Sinoning oldiga to‘kdi. Hammasi shifobaxsh giyohlar edi. Buni ko‘rgan Ibn Sino quvonib so‘radi: – Barakallo, o‘g‘lim, eng dorivor giyohlarni teribsan. Endi bir savolimga javob bersang. Qani ayt-chi, oyoq qabarishiga nima davo bo‘ladi?

– Mening tabiblikdan xabarim yo‘q, – dedi bola, – sizga o‘zim endi shogird tushdim-ku.

Ibn Sino: “Shu o‘n kun orasida nabotot ichida yurib tabiblikdan alifni o‘rganmabsanmi, sendan tabib emas, olisotar chiqadi”, – dedi ko‘nglida, so‘ng ovozini chiqarib:

– Senga javob, o‘g‘lim, ketaver! Borib olisotarga shogird bo‘l! – dedi.

Oradan bir kun o‘tgach, kambag‘al kishining o‘g‘li yetib kelib, to‘plagan o‘tlarni

hakimning oyog‘i ostiga cho‘kdi. Ibn Sino juda xursand bo‘lib:

– Barakallo, bo‘tam, qani menga ayt-chi, oyoq qabarganiga nima davo bo‘ladi? – deb so‘radi.

– Yovvoyi rayhon yo yalpizni suvda ivitib, ozgina tosh tuzdan qo‘shib yuvish kerak, – javob qildi bola.

– Cho‘l-biyobonda qolding-ku, suv topolmading deylik, chanqoqni nima bilan qondirish mumkin? – yana savolga tutdi Ibn Sino bolani.

– Yantoqning suvi chanqoqni qondiradi, ham darmon bo‘ladi, – dadil javob berdi bola.

– Rahmat, o‘g‘lim, sen endi menga shogirdgina emas, farzan

Rivoyatdan ko‘rinib turibdiki, ustoz va shogird munosabatlari hatto ota – bolachalik yaqin bo‘lgan, Ibn Sino shogirdini farzand sifatida qabul qilgan. Tarixiy manbalarda yuritilicha, temuriylar davrida ham ustoz- shogird an’anasiga alohida e’tibor qaratiladi. Bunga misol qilib biz, fransuz temurshunosi Marsel Brionning "Menkim, Sohibqiron Jahongir Temur" asaridagi ba‘zi jumlalarni Temur bobomiz tilidan keltirishimiz mumkin " Savod chiqarish uchun muallim sabog‘iga borganimda hali juda yosh edim. Birinchi o‘qituvchim mullo Alibek ismli kishi bo‘lib, maktabimiz mahallamiz masjidida joylashgan edi. Ustoz bergen topshiriqlarni tez va oson o’zlashtirardim: Qur'on suralarini yod olishda ham, husnixatda ham, talaffuzda ham benuqson edim. Bir kuni mullo Alibek meni otamga alqab: "O'g'lingni qadrla- uning idroki va quvvat hofizasi betakror, shuning barobarida u har ikkala qo‘li bilan birdek yoza oladi. Bunday insonlar ulg‘ayib har ikki dunyoda ham nom qoldirar- degan ekan". Buni qarangki ustoz shogirdining kelajakda qanday inson bo‘lib yetishishini oldindan u egallagan bilimlar-u iste'dodiga qarab ayta olgan va bu maqtov Temur bobomizni dunyoviy va diniy bilimlarni yanada chuqurroq o‘rganib , butun dunyoni qo‘l ostiga birlashtirib, islom dinini yetti iqlimga yoyishga turtki bo‘lgan bo‘lsa ajab emas. Yana bir temuriylardan shoh va shoir Z.M.Boburning ham Alisher Navoiyga ixlosmand bo‘lib, u kishi bilan umr bo‘yi ko‘rishishni orzu qilib, yozishmalar qilib, asarlarini o‘qiboq, Navoiyni ustoz sifatida ko‘rganini ustoz- shogird an’anasining qanchalik o’sha davrdayoq rivoj topganini bilib olishimiz qiyin emas. Chunonchi P.Qodirovning "Yulduzli tunlar " asaridan: " Bobur yaxshi ko‘rgan kitoblari qo‘yilgan xonaga burilib, baxmal va charm muqovalar ichida sahifalarga bitilgan satrlarga ulug‘ shoirning otash nasafлari sezilib turganday bo‘ladi. Bobur Firdavsiydan, Sa’diydan minglab baytlarni yod biladi. Hozir u kitoblari orasidan "Xamsa"ni olar ekan, uzoq Hirotda yashayotgan Alisher Navoiyni xayol ko‘zi bilan ko‘rganday bo‘ldi... Bobur "Farhod va Shirin" dostoni qatidagi Navoiyning Bekzod chizgan rasmi nusxasiga qarab turib so‘radi: Ulug‘ amir, nasib qilsa huzuringizga borsam yo‘limga Ahramanu ajdarho uchrasa, Farhodingi hammasini yengib o‘tsam, o‘shanda siz menga... she’riyat bilimini ochg‘uvchi kalit berurmisiz?" . O’n ikki yoshli Boburning shunchalik adabiyotga mehr qo‘yib, she’riyat

ilmini Navoiydan o'rganishni orzu qilganini bilib olish qiyin emas.

Abu Abdullo Rudakiy aytganlaridek: " Ilmdan yaxshiroq xazina bo'lmas , Qo'lingdan kelguncha tera olsang bas " . Darhaqiqat ustoz shogirdiga o'rgatishi uchun o'zi o'rganishi lozim bo'lganidan ko'ra, ko'proq aql sohibi bo'lishi, shogird esa o'z bilim xazinasini boyitishi uchun ustozidan qunt bilan o'qib o'rganishi lozimdir.

Mahmud Koshg'ariy ta'kidlaganidek, "O'quv qunt beradi - bilim sharaf -shon, shu ikkov tufayli ulug'dir inson". Demak inson zoti qunt bilan bilim olibgina ulug'likka erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Pedagogik mahorat"nazariy, ilmiy,metodik jurnal 3-4-son
2. "Yulduzli tunlar"romani Pirimqul Qodirov "O'zbekiston" nashriyoti 1990. - 462 bet
3. "MENKIM,SOHIBQIRON - JAHONGIR TEMUR" Marsel Brion - Fransiya.(Tarjimonlar:F.Ro'ziyev,F.Tilovatov) - T.: Yangi asr avlodi.2016. - 576 bet
4. saviya.uz internet sayti